

O'QUV DASTURI PASPORTI

36 kreditli MMO-743-2024 raqamli o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi uzluksiz tibbiy-farmasevtika ta'limni muvofiqlashtirish kengashi tomonidan 2024 yil 6 iyulda ruyxatga olingan va Tibbiyot xodimlari kasbiy malakasini rivojlantirish markazining 2024 yil 6 iyuldagi Olimlar Kengashi 1-sonli majlis bayoni tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2026 yil iyul oyigacha

Ta'lim muassasi nomi		Tibbiyot xodimlari kasbiy malakasini rivojlantirish markazi		
Bo'lim/tarkibiy qism		Markazning «Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish» kafedrası		
O'quv dasturi nomlanishi		«Tibbiyot xodimlarining kasb etikasi va huquqiy savodxonligini takomillashtirish » mavzusida malaka oshirish kursi		
O'quv dasturi turi		Mavzuiy malaka oshirish		
O'quv dasturi muallifi/mualliflari		Asadov D.A., Xamraev A.K.		
Siklning davomiyligi		36 kredit		
Siklda dar berishga jalb qilingan o'qituvchilar va trenerlar				
				
Professor Asadov D.A	Dotsent Xakimov V,A	Dotsent Xamraev A.K.	Katta o'qituvchi T.Yu.Aripov	Katta o'qituvchi Sadykxodjaeva D.A.
Sikl maqsadi:		Kasbiy faoliyat doirasida yangi kompetensiyani takomillashtirish va (yoki) egallashdan iborat. Dasturni o'zlashtirish jarayonida tinglovchi axloqiy va deontologik asoslar haqida minimal bilimga ega bo'lishi kerak: - tibbiyot xodimi va bemor o'rtasidagi kasbiy hamkorlik me'yorlari, - rolli xulq-atvor haqidagi bilimlar, - verbal va noverbal muloqotda bemorning ehtiyojlarini yo'naltira olish, uni tushunmoq; - shaxsni himoya qilishning psixologik mexanizmlari haqidagi bilimlar; - nutq modullari va bemorlar bilan samarali hamda axloqiy muloqot usullaridan foydalanish ko'nikmalari.		
Siklga taklif qilingan mutaxassislar – Maqsadli auditoriya (kontingent)		Kurs dasturi turli yo'nalishdagi tibbiyot tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish, shuningdek, tibbiy yordam ko'rsatishning turli bosqichlarida, shu jumladan, tekshiruv, davolash va reabilitatsiya paytida bemorlar bilan bevosita aloqada bo'lgan tibbiyot xodimlarini (shifokorlar, o'rta tibbiyot xodimlari) malakasini oshirish uchun mo'ljallangan.		
Kurs vazifalari:		• Tibbiyot mutaxassisining psixologik savodxonligini		

	shakllantirish, rivojlantirish, kasbiy muloqot etikasiga oid zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallash; - Standart va nostandard vaziyatlarda samarali muloqot, harakatlar algoritmini qurishga zamonaviy yondashuvlarni shakllantirish; - Faollikning mutunosib ijtimoiy va individual shakllarini o'rgatish, kasbiy muloqot madaniyatini shakllantirish.
Sikl modullari	Modul1. Etika va deontologiyaning asosiy prinsiplari Modul 2. Muloqot filtrlari. Modul 3. Etika bo'yicha normativ-huquqiy baza Modul 4. Dalillarga asoslangan tibbiyot prinsiplari. Modul 5. Tibbiyot huquqi tushunchasi va tizimi Modul 6. Tibbiyot xodimlarining huquq va majburiyatlari Har bir modul bo'yicha testlar va yakuniy test
O'quv bazalari/asosiy o'quv bazasi:	Kurs tibbiyot hodimlari MOODLE pratformasida asosiy ishdan ajralmagan holda mavzuiy malaka oshirishlari uchun ishlab chiqilgan

		
		